

---

## Xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashining oltinchi chaqiriq yetmish oltinchi sessiyasi bo'lib o'tdi

Bugungi sessiyada kun tartibiga kiritilgan masalaga daxldor tashkilot rahbarlari ishtirok etdilar. Sessiya ishini xal deputatlari Farg'ona shahar Kengashi raisi Vosiljon Nazarov ochdi va olib bordi.

Sessiya kun tartibida kiritilgan quyidagi masalalar ko'rib chiqildi:

Kun tartibidagi dastlabki masala tashkiliy masala bo'lib ushbu masala yuzasidan shahar Saylov komissiyasi raisi Karimov Rustam Raximovich so'zga chiqdi va sessiya ishtirokchilariga joriy yil 27 noyabr kuni Xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashining bo'shab qolgan 17-Oybek hamda 28-Kirgili saylov okruglarida o'tkazilgan saylov natijalariga ko'ra, 17-Oybek saylov okrugidan O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi nomzodi Sattorov Murod Nazarovich 3143 ta (52 foiz) hamda 28-Kirgili saylov okrugidan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi nomzodi Tillaxo'jaev Mannonbek Malikovich 2237 ta (53,9 foiz) ovoz bilan g'olib deb topilganligini ma'lum qildi.

Shundan so'ng, kun tartibidagi navbatdagi masala – shaharda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha 2022 yil yanvar-sentyabr oylarida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan shahar hokimining birinchi o'rinbosari Mo'minov Bobirbek Xolmatovichning ma'ruzasi tinglandi.

Kun tartibidagi navbatdagi masala – Farg'ona shahar mahalliy byudjetining 2022 yil yakuni ijrosini sifatli yakunlash hamda tasdiqlangan daromad va xarajatlar miqdorini oshirish yuzasidan shahar moliya bo'limi boshlig'i Umarov Nodirjon Qodirovichning ma'ruzasi tinglandi.

Xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlari tomonidan muhokama, taklif va mulohazalardan so'ng qaror loyihasi deputatlar tomonidan bir ovozdan qabul qilindi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-11-29 15:05:15